

## O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI KARRA IKKI – BESH” QISSASIDA QAHRAMONLAR XUSUSIYATI

**Tojimatov Sherzodjon**  
*Mustaqil tadqiqotchi*

**ANNOTASIYA.** XX asrning o‘tkir qalam sohiblaridan biri bo‘lmish O‘tkir Hoshimovning 1987-yil yozilgan “Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasi orqali jamiyatdagi kamchiliklar, shu davrdakongi mazlum xalqning qiyin ahvoli, og‘ir mehnati hamda bu ish uchun yetarlicha imtiyozlar berilmagan oddiy odamlar hayoti tasvirlangan. Asar voqealari davomida ijtimoiy adolat uchun kurash tuyg‘usi bayon etilgan. Voqealar ortiqcha bo‘yoqlarsiz, xolisona yoritilgan.

**KALIT SO‘ZLAR.** Kommunizm, Sho‘ro jamiyati, poraxo‘rlik, jinnixonona, O‘tkir Hoshimov, “Ikki karra ikki – besh” asari

Hech qachon yolg‘on gap aytmagan, har doim haqiqatni so‘zlashni odat qilgan O‘tkir Hoshimov o‘zining “Ikki karra ikki – besh” hajviy qissasi orqali ham kitobxonlar mehrini yana bir bor qozona olgan ijodkordir. Asarning tili sodda, real hayotni tasvirlashga yo‘naltirilganligi sababli bu kitobni yosh-u qari birdek tushunib, huzur qilib o‘qiy oladi. Asar voqealari ostida Sho‘ro davrining chirkin siyosati, shu davrdagi mahalliy amaldorlarning xalq boshiga solgan kulfatlari yotadi.

Adabiyot – bu juda murakkab san‘at shaklidir. Unda turfa xil taqdirlar va ularning kechinmalarini o‘quvchining yuragiga yetkazib berish yozuvchidan juda katta mahorat talab qiladi. “ Ikki karra ikki – besh “ asarining bosh qahramoni Qo‘shoqvoy ham, uning hayoti ham juda murakkab. Yoshlik chog‘larida G‘afur G‘ulomning “Shum bola”si kabi nihoyatda sho‘x, yolg‘on gapirishga moyil bo‘lgan yosh bola yillar davomida ko‘plab qiyinchiliklar, sinovlar, hatto xiyonatni ham boshidan kechiradi (xuddi “Ikki eshik orasi” dagi Shomurod kabi). Nihoyat yoshi o‘tib, o‘rta yoshlarga yetganda juda sodda, juda ham muloyim bo‘lib qoladi (Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asaridagi Mo‘min chol kabi).

Bundan tashqari do‘stlikning eng oliy ko‘rinishi ham qalamga olinadi. Bunda qishloq hisobchisi Salim akanig o‘g‘li Qo‘shoqvoy hamda raisning o‘g‘li

Shodivoy bir-biriga bo‘lgan do‘stligi samimiy, hech qanday manfaatlarsiz ta’riflangan. Ikki do‘st o‘rtasidagi ijtimoiy farq ham, raisning ularni Toshkentga olib borib, o‘z o‘g‘lini o‘qishga joylab, Qo‘shoqvoyni qishloqqa qaytarib ketganida ham ular o‘rtasidagi do‘stlik munosabatiga hech qanday salbiy ta’sir qilmaydi. Asar oxirida Qo‘shoqvoyni qamatib yuborish imkoni bo‘lganida qora kuchlar Shodivoyning yuristligidan foydalanib, uning qo‘li bilan bu ishni amalga oshirmoqchi bo‘lishdi. Lekin hamma sinovlarni yengib, qiyinchiliklarda toblangan do‘stlik ulardan ustun keladi va bu ish amalga oshmay qoladi.

Asarda juda ko‘plab salbiy hamda ijobiy qahramonlar mavjud:

Asar bosh qahramoni Qo‘shoqvoy Alimov, uning do‘sti hamda raisning farzandi Shodivoy Salimov, traktorchi Tursunboy, maktab muallimasi Muhabbatxon, Fizika muallimi Usmon aka. Bu o‘rinda ayniqsa maktab o‘qituvchilari Usmon aka hamda boshlang‘ich sinflar ustози Muhabbatxonni alohida ta’kidlash lozim. Ilmi ziyo ulashaman deb, bu ikki qahramon ham o‘z vazifalaridan erta ozod etiladi. Qo‘shoqvoyning hazilga usta ekanligi, dars davomida matematikadan berilgan savollarga to‘g‘ri javob bermay, ustози Muhabbatxonni asabini buzgani, direktor huzuriga kirishganda esa hatto yoshiga qaraganda murakkab bo‘lgan savollarga ham to‘g‘ri javob berishi Muhabbatxonning ishdan ketishiga asosiy sabab bo‘ladi.

Usmon aka esa Qo‘shoqvoy va Shodivoylar bitiruvchi sinfligida, davlat imtihoni olish jarayonida rais oldida katta “xato” qiladi. O‘quvchilarni dala ishiga chiqarmay, imtihon bilan “band qilishi” uning ham iste’foga chiqarilishiga olib keldi.

Yuqoridagi ikki muallim timsoli orqali har bir davrda ham yurt istiqboli, kelajak avlodning savodiga befarq bo‘lmaydigan odamlar har bir zamonda bor ekanini ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu davrda ularning mehnati qadrlanmadi va o‘zini Sovet “fidoyisi” deb hisoblaydigan amaldorlar tomonidan ishdan olindi.

Muallimlar bilan bir qatorda rais ig‘vogar deb nomlagan Ergashev ham aslida yurt uchun, uning osoyishtaligi va manfaati uchun jon kuydirdi. Qo‘shoqvoy

garchi mehnatkash bo‘lsa-da, yoshligida yong‘oqdan yiqilib, loyga kallasi bilan sanchilib qolgan edi, bu esa uning aqliy imkoniyatiga ta’sir qiladi. Bundan rais uddaburonlik bilan foydalanib uni bitta brigadaga brigadir qilib qo‘ydi. Sababi esa oddiy – uquvsizligi uchun uni aldash, boshqarish oson edi. Ergashev kelishidan avval ham uni ogohlantirdi. Bo‘lar-bo‘lmas gaplar bilan seni aldaydi, deb uqtirdi. Ergashev kelib unga haqiqatni aytdi. Yerni asrash kerakligini, har bir gekardan ellik uch sentner paxta olish imkonsiz ekanini uqtirishga harakat qildi. Lekin Qo‘shoqvoy rais nima desa shu bo‘lishini aytib unga quloq solmadi. Bu ham sovet jamiyati boshqaruvining eng kichik bir shakli edi. Ularga aqllilik qiladigan odamlar emas, shunchaki aytilgan buyruqni so‘zsiz bajaradigan ishchilar kerak edi. Shu sababdan haqiqatni aytib chiqqan Ergashevni qamoqqa tiqib qutulishdi.

Rais Toshmamat Alimov, “Ferma tog‘a” Shaydul kassir, Jovli Mengliyevich, obkom vakili Gadoyev, savdo a’lochisi Qo‘shshayev, Viktorov – bularning barchasi millat kuchidan foydalanib, lekin ularning mehnatiga yarasha haq berish o‘rniga yillar davomida mahalliy xalqni aldab kelgan mansab egalari hisoblanadi. O‘z yurtida turib, vatanni, uning tuprog‘ini himoya qilish o‘rniga, o‘z manfaatlarini o‘ylab, pul topish maqsadida ham xalqni, ham qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan yerlarni qiynashdi. Kommunizm ma’nosini to‘liq anglab yetmay, uning niqobi ostida o‘z manfaatlarini suiiste’mol qilib, oddiy xalqni, vatandoshlarini ham ruhan, ham ma’nan azobladilar.

Kommunizm lotin so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “umumiy” va “universal” degan ma’noni anglatadi. Uni sinfsiz, pulsiz va davlatsiz ijtimoiy tartib mafkurasi deb atash mumkin. XIX asrda o‘z izini qoldirgan kommunizm mafkurasiga qaramasdan, u ishlab chiqarish vositalarini to‘liq ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshirishni va xususiy mulk tushunchasini yo‘q qilishni nazarda tutadi<sup>6</sup>.

Kichkinaligimda ikki karra ikki – besh, deb yurganim o‘yinchoq ekan-ku! Dunyoda bunaqangi ishlar bor ekan! Xohlasa, havodan holva yasaydi. Xohlasa,

---

<sup>6</sup><https://uz.almancax.com/komunizm-nedir.html>

xalqni cho‘michda qoqib boylik to‘playdi. Davlatning ko‘ziga cho‘p solib, “qahramon bo‘ladi”<sup>7</sup>.

Yuqoridagi fikrlar orqali asarning nima uchun “Ikki karra ikki – besh” deb nomlaganiga tushunib olishimiz mumkin. Bu davrda amaldorlarning qilgan ishlari, ularning xatti-harakatlari odamgarchilikka to‘g‘ri kelmasligi haqida bilib olishimiz qiyin emas. Amaldorlar boylik to‘plash, Sovet rahbariyatiga o‘zlarini yaxshi ko‘rsatish uchun odam qilishi mumkin bo‘lgan eng chirkin ishlarni amalga oshirishga tayyor ekanini bilib olamiz. Hatto, amaldorlarning barcha kirdikorlarini oshkor qilmoqchi bo‘lgan Qo‘shoqvoyi jinni deb hisoblab, sog‘ odamni to‘rt oy davomida jinnixonada saqlashdi.

Jinni bu:

1 Aqldan ozgan; telba. Jinni bo‘lmoq.

2 Ahmoqona qiliqli. Jinni bo‘ldingizmi?

Jinni+lik Jinni holati. Jinniligi uchun davolanmoq.

Jinni+xona Aqldan ozganlar, ruhiy kasallar shifoxonasi<sup>8</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asar takrorlanmas va bebaho ma’lumotlarga boy hisoblanadi. Bu asardagi voqealar, syujet qurilishi juda ham mukammal bo‘lib, har bir kitobxonni o‘ziga jalb qilish xususiyatiga ega. Mutolaa davomida yumorga boy sahnalar ham, chuqur o‘yga toldiradigan fojiviy voqealar ham juda ko‘p. Har bir qahramon taqdiri, ularning hayotiy kechinmalari kitobxonni o‘yga toldiradi. Asardagi ziddiyatlar hikoya oxirigacha davom etadi va bu ham kitobxon ishtiyoqini yo‘qotmasdan, katta ishtiyoq bilan o‘qishiga xizmat qiladi. Asarning bosh qahramoni Qo‘shoqvoy obrazi orqali insonga xos bo‘lgan deyarli barcha tuyg‘u va kechinmalar: shaddodlik – yoshlik chog‘larida har bir voqeani bo‘rttirib gapirishi, quvonch – otasi eshshak olib bergandagi uning holati, shodlik – tut shoxi kesib olish uchun Raisning uyiga kirganda, mamnunlik – brigadir bo‘lib, paxta normalarini ortig‘i bilan bajarganda, nafrat –rais unish eshshagini otib

<sup>7</sup>Икки карра икки — беш [Матн]: У. Хошимов. — Тошкент: “O‘qituvchi” НМИУ, 2018. — 216 бет.

<sup>8</sup>Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati/A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq.—T.: «Sharq», 2001.— 336 b.

o‘ldirganda, xiyonat – Nargizning rais bilan yashirin musnosabati qalam ostiga olinadi va o‘quvchining hissiy ongiga bevosita ta’sir qiladi.

Bu davr amaldorlari o‘z qornini to‘ydirish, imkoni boricha ko‘proq mol-mulk orttirish hamda o‘z mansablarida ko‘proq qolish uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladilar. Xalq ahvolini, ularning turmush tarzi, nima yeb, nima ichishi ular uchun mutlaqo qiziq bo‘lmaydi. Asarda qalamga olingan mavzular o‘sha davrning dolzarb masalalari bo‘lib, ularning aksariyati hozir ham o‘z yechimini topmagan. Bir so‘z bilan aytganda, asar mazza qilib o‘qilishidan tashqari o‘quvchini chuqur o‘yga toldirish xususiyatiga ham ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хошимов. Ҳ. Икки қарра икки – беш [Матн]: – Тошкент: ”О‘қитувчи“ НМДУ, 2018. – 216 бет.
2. Sobirova, M. (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
3. A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati – T.: Sharq, 2001.— 336 b.
4. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>
5. G.Ortiqova. Adabiyotni o‘zga fanlar bilan aloqadorlikda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Educational Research in Universal Sciences Journal Impact Factor: 5.564. ISSN: 2181-3515. Volume 2. Special issue 4 june 2023, 143-147-betlar
6. Sobirova, M. (2020). Assimilation of human qualities during the process of working with text. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science” SOI: 1.1/TAS (<http://t-science.org/arxiv> DOI/2020/12-92.html) (DOI:10.15863/TAS Published: 18.12.2020.
7. <https://uz.almanax.com/komunizm-nedir.html>
8. Internet manbalari.